

XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIGA NISBATAN GEOSIYOSATI

G'ofurov Ilyosbek Latibjon o'g'li

JIDU magistiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy xalq Respublikasining yaqin sharq mamlakatlariga nisbatan geosiyosati keltirilgan.

Kalit so'zlar: Global, dunyoviy, g'oyaviy, geosiyosat, iqtisodiyot, mafkura, zamonaviy, asosiy omillar.

XXI asrda kechayotgan global integratsion jarayonlar dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Hozirgi kunda biz uchun nisbatan yangi fanga qiziqish ortib bormoqda, u XX asr boshlarida geosiyosat fani nomini oldi. Jahon tarixining zamonaviy bosqichi ko'plab vaziyatlar, ham jahon siyosiy jarayoni, ham Markaziy Osiyo davlatlari rivojlanishi tufayli jahon arenasidagi kuchlar muvozanatidagi kuchli siljishlar bilan tavsiflanadi. Davrning o'tishi dunyo voqealari rivojini har tomonlama tushuntirish va uzoqni ko'ra bilishni talab qiladi. Zamonaviy geosiyosat davlatlarning xalqaro munosabatlardagi xulq-atvorini belgilovchi asosiy omillar to'plamini kengaytirish orqali analitik fan sifatida geografik, iqtisodiy, mafkuraviy determinizmni yengib o'tadigani bejiz emas.

Hozirgi mamlakatlar uchun geosiyosat dolzarbdir. Chunki u jamoat ongida tashqi va ichki siyosiy jarayonlarini idrok etishning mafkuraviy mohiyatini anglashga yordam beradi. Geosiyosat geografiya, tarix, iqtisod, etnologiya va boshqa fanlar chegaralarida ma'lum bilimlarni talab qiladi. Bu esa professional tahlilchi uchun nafaqat makon va zamon hodisalarni malakali tahlil qilish uchun, balki bashorat, ssenariylar va rivojlanishning strategiyasini ishlab chiqish uchun ham zarurdir. Shu bilan birga geosiyosat klassikalari guvohlik berganidek, geosiyosatchi yuqori umumiy ta'lim madaniyati va eng muhimi, yangi g'oyalar generatori bo'lishi kerak.

Geopolitikaning izchil rivojlanishi o‘z sohasiga nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ekologik va boshqa jihatlarni kiritish yo‘lidan boradi.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni har tomonlama salohiyatini oshirish, geosiyosiy kelajagini yaratish, tashqi —katta o‘yinlar|dan himoyalash asosiy maqsad qilib olingan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: —...dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus|| olayotganligi, geosiyosiy raqobat, egallab turgan mavqemizni xolisona va tanqidiy tahlil qilishimiz, tobora globallashuv talablariga javob berishimiz dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Bugun butun dunyoda va har bir mamlakatda keng va strategik dunyoqarashga, global tafakkurga, konkret makon va vaziyatlarda operativ qaror qabul qilish qobiliyatiga, to‘g‘ri yo‘l tanlash imkoniga ega bo‘lgan professional geosiyosatchi va siyosatshunoslarning yetishmasligi his qilinmoqda.

Bugungi kungacha jiddiy o‘zgarishlarga uchramagan geosiyosat, davlatlararo aloqalar bo‘lmasa kerak. Bu esa o‘z navbatida, xalqaro munosabatlarga amaliy Xitoy va Rossiya bosh bo‘lgan xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) Markaziy Osiyo blokini ko‘pincha NATOga qarama-qarshi turadigan sharqdagi kuch sifatida tasvirlashadi”, deb yozadi Abu-Dabidagi Zoida Universiteti siyosatshunoslik professori Jonatan Fulton The Washington Post nashri blogida. Mutaxassisning yozishicha, o‘tgan haftada Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan ShHT tashkilotlarining sammitida Hindiston va Pokistonning 2001 yili tashkilot vujudga kelganidan beri yangi a‘zo bo‘lib kirishi haqidagi xabar eng muhimi bo‘ldi. Agar Eronning mazkur tashkilotga a‘zo bo‘lish istagi kundan kunga bosh mavzuga aylanib kuch to‘playotganligi va Turkiyaning ShHTga a‘zo bo‘lishi yanada aniq bo‘lib borayotganligi hisobga olinsa, ShHTning yiriklashish istiqbollari, aftidan, yanada kengayadi.

"Agar ShHTning dastlabki kengayishi Yaqin Sharq tomon siljiydigan bo‘lsa, ravshanki, arab davlatlari ham tashkilotga a‘zo bo‘lish istagida ariza bera boshlaydilar”, deyiladi xabarda. Vashingtonning Fors ko‘rfazi Arab davlatlari

kengashi va Qatarga bergan mujmal javobi AQSh dunyoning yetakchi davlati maqomidan chetlashtirilayotgani tasavvurini bermoqda va Yaqin Sharq rahbarlarini xavfsizlik masalasida boshqa chetdagi yirik davlatlarni hamkor sifatida ko‘rish masalasini yuzaga chiqarmoqda.

"Eron va Turkiyaning ShHTga a'zolikka intilishi tashkilotning kengayishga bo'lgan maqsadinigina ifodalamaydi", — deb fikrini davom ettiradi mutaxassis. "Bu, shuningdek, Xitoyning, xususan, "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi orqali Yevroosiyo qit'asidan o'tadigan Buyuk Ipak yo'lini yaratish rejalarini va tashqi siyosiy tashabbuslarini ham ifoda etadi".

Eron "Bir kamar - bir yo'l" doirasidagi muhim hamkor, chunki u Xitoy-Markaziy Osiyo-G'arbiy Osiyo iqtisodiy makonida so'nggi nuqta bo'lib, ikki davlatning sarmoyaviy infratuzilma loyihalarini bir biriga bog'laydi. Turkiyaning ham Xitoy tashabbusidagi roli beqiyosdir. Boisi Turkiya ham Xitoy-Markaziy Osiyo-G'arbiy Osiyo iqtisodiy makonida so'nggi nuqta bo'lib, infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etish hududdagi yuk tashish imkoniyatlarini ancha kengaytirishga sabab bo'ladi.

Nima bo'lmasin, ShHTning Turkiya va Eron qo'shilishi bilan kengayishi Xitoyning Fors ko'rfazi Arab davlatlari hamkorlik kengashi bilan munosabatlarida qiyinchiliklar tug'diradi. Garchi, Arab davlatlari hamkorlik kengashi "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi loyihalarida qatnashmayotgan bo'lsa-da, Xitoy uchun Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan aloqa qilish muhimdir. Xitoy neft importining 30 foizidan ko'prog'i Saudiya Arabistoni, Ummon, Kuvayt va BAAdan keladi. Qatar bo'lsa Xitoy uchun eng yirik tabiiy gaz zaxirasiga ega bo'lgan mamlakatdir. Fors ko'rfazi Arab davlatlari kengashi Xitoyning Yaqin Sharqdagi siyosatida muhim bo'lib, Eron va Turkiya bilan Xitoyning yaqin aloqadorligi mavjud munosabatlarni murakkablashtirib yuborishi mumkin.

Bunday holatda Xitoy qanday yo'l tutadi? Xitoy kimningdir tarafini olishdan o'zini tiyadi va Fors ko'rfazidagi murakkab vaziyatni diplomatik yo'l bilan hal etib, hududda barqarorlikni ta'minlashiga urg'u beradi. Biroq, ShHTga Eronning a'zo

bo‘lishi haqidagi gap-so‘zlar Xitoyning Fors ko‘rfazida kimning yonini olishi haqidagi fikrlari hal qilinganlik tasavvurini uyg‘otadi.

Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasidagi raqobat ortidan Eron va Turkiyaning ShHTga a‘zo bo‘lib kirishi Xitoyning Yaqin Sharqdagi siyosatida diplomatik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birgalikda ShHTning kengayishiga imkoniyatlar ham tug‘diradi. Hindiston va Pokistonning ShHTga qabul qilinishi, nizolashayotgan taraflarni tashkilot o‘z bag‘riga qabul qila olishini ko‘rsatib berdi. Eronning tashkilotga to‘la huquqli a‘zo sifatida qabul qilinishi yaqinlashayotgan bir paytda, Saudiya Arabistoni va uning Fors ko‘rfazidagi hamkorlari ShHTga a‘zo bo‘lishga qiziqib qolishidan hayron qolmasak ham bo‘ladi.

Saudiya Arabistoni va Eronning raqobati hamda AQShning Fors ko‘rfazidagi noaniq siyosati hududni boshqa yirik davlatlar uchun o‘z tashqi siyosatini yurgizadigan makonga aylantirib qo‘ydi. Bu esa Fors ko‘rfazidagi monarxiyalarning ushbu davlatlar bilan yaqin aloqa o‘rnatishga intila boshlashiga sabab bo‘ladi hamda ko‘rfaz davlatlarida Sovuq Urush davridan keyin kuzatilmagan ko‘p qutbli tizim amal qila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geosiyosat asoslari
2. Taraqqiyot kafolatlari
3. Zamonaviy geosiyosat.